

TA'LIM MUASSASASI VA OILALAR O'RTASIDA HAMKORLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR

Butayeva Umida Aliboevna

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti psixologiya kafedrasini
mudiri, dots, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Tel: (97) 917-09-83

Elektron manzil: botayeva83@mail.ru

Oila, mahalla va ta'lif muassasasi hamkorligini amalga oshirish ancha murakkab ish bo'lib, o'qituvchidan, oila a'zolari va mahalla faollaridan ancha vaqt hamda katta kuchni talab qiladi. Chunki mafkuraviy targ'ibot, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash o'qituvchilarda katta hammadagi bilimni talab qiladi.

Tashkiliy ishlarni amalga oshiradigan insonlarning o'zlarini avvalo milliy g'oya va mafkura nima ekanligini bilishi, uni to'g'ri talqin qilinishi lozim. Har bir ta'lif muassasasi pedagogi, oila a'zosi, mahalla faollari quyidagi bilimlarni to'la egallashi shart. Birinchi navbatda mafkura nima ekanligini tushunish lozim. Zotan, mafkura - inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashning o'zgartiradigan kuchli vosita. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansagina yetarlicha samara beradi. Shuning uchun mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarni, fuqarolarning tushunchasi, aql - zakovati, idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda, sabr -toqat bilan, ma'rifiy yo'l va usullar orqali yoshlarimiz ongiga singdirish oliy ta'lif professor-o'qituvchilari oldidagi muhim vazifadir.

Milliy g'oya tarix falsafasi xulosasining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Chunonchi, har bir xalq, millatning o'z tarixi, yashash sharoitlari, turmush tarzi, o'tmishi, hozirgi kuniva kelajagi mavjud. Milliy g'oya ana shu omillar zamirida shakllanadi, qaror topadi va rivojlanadi. Millatning g'oyasi uning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllanadi, uning hayoti mazmunini, intilishlarini, orzu-umidlarini ifoda etadi. Shu mazmunda milliy g'oyada millatning taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga molik voqeа va hodisalar mujassamlashadi.

Xorijiy davlatlarning bir nechta oliy ta'lif muassasalarining oila bilan xamkorlik jarayonlari o'rganildi. Dastavval **AQSh ning Nebraska shtatida o'tkazilgan Lincoln universiteti** tadqiqotchisi Amanda Ronnening ishlari bilan tanishildi. Amanda Ronnening tadqiqoti aynan OTM va oila hamkorligiga qaratilgan bo'lib, Kolorada hamda Nebraska shtatlaridagi OTM ob'ekt sifatida tanlangan. Tadqiqotlarga ko'ra Nebraska shtatining Lincoln universitetida maxsus "**Ota-onalar va talabaning oila a'zolari va qarindoshlari**" bilan ishslash markazi

tashkil qilingan. Markaz birinchi faoliyatini talabalarining ota-onalaridan so‘rovnoma o‘tkazish bilan boshlagan. “Maxsus Markaz” tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari oliy ta’lim muassasasida talabalar bilan ishni tashkil qilishga, iqtidorli talabalarni aniqlashga, talabalarni ijtimoiy kelib chiqishini o‘rganishga yaqindan yordam bergen. “Ota - onalar va talabaning oila a’zolari va qarindoshlari” bilan hamkorlikni samarali tashkil etish maqsadida Markazda 4 yil davomida tadqiqot olib borilgan. Bunda har bir talabaga individual yondoshilgan, ota-onalar bilan turli xil tadbirlar tashkil etilgan. Bu tadbirlarga xatto talabalarning bobo-buvilar ham jalb etilgan. Oilaviy sport o‘yinlari, yozgi lagerlar, “pikniklar” oilalar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan. Tadqiqotning ko‘rsatishicha, bu Markazning samarali faoliyati natijasida quyidagi yutuqlarga erishilgan:

1. Talabalarни ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyalari oshgan.
2. Talabalarning o‘zlashtirich ko‘rsatkichlari 20 % ortgan.
3. Ta’lim muassasasining imidji ortgan.
4. Ko‘plab ijodkor talabalar aniqlangan va ular qo‘srimcha hunarlarga yo‘naltirilgan.
5. Talabalarning tashabbusi bilan ko‘plab to‘garaklar tashkilqilingan va past o‘zlashtiruvchi talablar bilan qo‘srimcha ishlashlariga imkoniyatlar yaratilgan.

Tadqiqotchi Amanda Ronnening xulosasiga ko‘ra, buning natijasida erishilgan eng asosiy yutuq talabaning ota-onasi va yaqinlariga bo‘lgan munosabati va ishonchidir.

Yaponianing **Vaseda universiteti** tadqiqotchisi Ami Suzukining ko‘rsatishicha, Yaponianing Vaseda universitetida “Oila bilan ishlash markaz” lari tashkil etilgan bo‘lib, talabalarning ota-onalari bilan oliy ta’lim muassasalarini hamkorlik qilishda on-line tarzda aloqa o‘rnatilgan. Ota-onalar farzandlarining oliy ta’lim muassasasidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini on-line orqali nazorat qilib boradilar. Buning uchun oliy ta’lim muassasasining web saytida barcha ma’lumotlar yoritib boriladi. Ota-onalar oliy ta’lim muassasasining web saytidan o‘zlarini qiziqtirgan barcha ma’lumotlarni olishi, hamda o‘zlarining fikr mulohazalarini qayd etib borish imkoniyatiga egalar. Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan barcha tadbirlarga talabalarning ota-onalari taklif etiladi. Oliy ta’lim muassasasini tamomlagan talabalarga diplom berish tadbirida ota-onalar albatta ishtirot etadilar.

Kanadaning **Vaturloo Universitetida** 1 bosqichga o‘qishga qabul qilingan talabalarning ota-onalari bilan “**Biz sizlar bilan farzandlaringizni qo’llab-quvvatlash uchun ishlaymiz**” shiori ostida ish olib boriladi. Ota-onalar farzandlarini o‘quv jarayonini nazorat qilishining on-line tizimi yo‘lga qo‘yilgan

bo‘lib, o‘quv jarayoni, turli xil tadbirlar on-line tarzda taxsil olayotgan talabaning oilasi tomonidan nazorat etib boriladi. Ota-onalar farzandlarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini talabaning shaxsiy portfoliosi orqali nazorat etib borish imkoniyatiga ega. Ota-onalar va dekanat hamkorlikda talabalarni faoliyatini nazorat etib boradilar. Ota-Ona + Dekanat + Talaba konsepsiysi ishlab chiqilgan va shu tizim asosida ish olib boriladi.

Shubilan birga, ushbu oliy ta’lim muassasasida ilmiy-amaliy konferensiyalar ota-onalar bilan hamkorlikda o‘tkazilishi ham yo‘lga qo‘yilgan. Ota-onalarni oliy ta’lim muassasasi xaqidagi fikrlarni bilish maqsadida har o‘quv yili yakunida so‘rovnomalar olinadi va ularning natijalari matbuotda e’lon qilinadi. Bu esa oliy ta’lim muassasasining imidjiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiyadagi tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha(I.G. Yurkovskaya, A. A. Kalieva) oliy ta’lim muassasalarilarida umumta’lim maktablaridagidek ota-onalar yig‘ilishlarini tez-tez o‘tkazib turishning imkoniyati yo‘q. Oliy ta’lim muassasalari mакtab emas, oliy ta’lim muassasalarida turli shaharlar, viloyatlardan, boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar taxsil oladilar va ota-onalarning har oydagи yig‘ilishlarda, uchrashuvlarda ishtirok etishlarining imkoniyati yo‘q. Ammo, shaxsan uchrashuvning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda uyali aloqa orqali talabalarning ota-onalari bilan muloqot qilish ham ijobjiy natijalarga olib keladi. Zarur bo‘lganda oiladan kerakli ma’lumotlarni ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda olish mumkin. Pedagoglar, ota-onalar taxsil oluvchilarning ta’limi, tarbiyasiga yaqindan ta’sir ko‘rsatadilar. Shuning uchun ishda ijobjiy natijaga erishish uchun o‘zaro harakat va hamkorlik qilish zarur.

Rossiyalik tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlardagi muhim yo‘nalishlardan biri –bu diagnostikadir. Masalan, Sankt-Peterburgdagi tibbiyot akademiyasida har yili ota-onalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkaziladi. Bu so‘rovnomalarning natijasi ota-onalarning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilishga qiziqishlarini ko‘rsatdi. So‘rovnomada ishtirok etgan ota-onalarning ko‘pchiligi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini ko‘rsatganlar. Oliy ta’lim muassasalari ota-onalar bilan hamkorligi shakllaridan biri, bu eng faol, tajribali, tashabbuskor ota-onalardan tuzilgan ota-onalar kengashidir. Oliy ta’lim muassasalarida 2008 yildan beri ota-onalar Kengashi faoliyat ko‘rsatib keladi. Ota-onalar kengashining Nizomi ishlab chiqilgan. Kengashning tarkibiga 1-5 kurs talabalarining ota-onalari kiritilgan. Ular murabbiylar kengashi bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatib, pedagogik jarayonni tashkil etishda, tarbiyaviy ishlarni olib borishda yordam beradi, birgalikdagi tadbirlarni o‘tkazishni tashkil etishda qatnashadi, taxlil qiladi,

baxolaydi, oliv ta'lim muassasalari va oilaning hamkorligi yuzasidan yakuniy xulosa chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son.
2. Burkhanov A., Avlaev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity/ E3S Web of Conferences 2021.
3. Butayeva U. A. TALABA PSIXOLOGIK KAMOLOTI MASALASI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. S-4-11
4. Klimov Ye.A. Put v professiyu.- L.: 1974.143 s.
5. Umida Aliboyevna Butayeva Mas’uliyat psixologik yetuklik mezoni sifatida. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2017. S-52-58
6. Umida Aliboevna Butayeva Shaxsnинг noaniqlik sharoitlarida qaror qabul qilish xususiyatlari. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Volume 2 | issue 1 | 2022
7. Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>
8. Eshmurodov, O., & O‘roqova , L. (2024). MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>
9. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. . (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI O‘QISHGA O’RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>
10. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>